

KONSTITUTSIYA – ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti

Markaziy Osiyo tillari va madaniyati instituti

Filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

Azamatova Sevinch Shuxrat qizi

Ilmiy rahbar: dots. U.Rashidova

Annotatsiya. Konstitutsiya — davlatni davlat, millatni millat qiladigan muhim siyosiy hujjat hisoblanadi. Boshqacha aytganda, jamiyat tayanchi va yurtimiz taraqqiyotining huquqiy kafolati, davlatimiz mustaqilligining yorqin ramzi, ko‘p millatli xalqimiz xohish-irodasining qonuniy ifodasidir. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasi ekanligi haqida fikr yuritiladi.

Tayanch so‘z va iboralar: Konstitutsiya, siyosiy hujjat, diplomatik aloqa, erkin davlat.

O‘zbek tilida erkinlikni, hurlikni ifodalovchi bir qancha til birliklari mavjud. Mustaqillik, erkinlik, hurlik, ozodlik tushunchalari o‘zaro ma’nodosh bo‘lib, “O‘zbek tilining sinonimlari lug‘ati”da bir sinonimik qatorda keltirilgan [1, 284]. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (O‘TIL) da *erkin* so‘ziga shunday ta’rif berilgan: 1. Kishining yoki kishilarning o‘z xohishi bilan ish-harakat qilish huquqi; ixtiyor; mayl. 2. Siyosiy, iqtisodiy, huquqiy jihatdan mustaqillik; erkinlik [2, 56]. Lug‘atda keltirilgan ta’riflardan ma’lum bo‘ldiki, erkin davlatda yuqoridagi ikki xususiyat mavjud bo‘ladi. Jonajon yurtimizda ham ana shunday erkinlik, hurlik shabadalarining esishi bosh qomusimiz – Konstitutsiyamizga ham bog‘liqdir.

Men tarixni yaxshi ko‘raman, chunki o‘tmish, kechagi kun ertangi kunning sabog‘i bo‘ladi. Yurtimiz o‘tmishda ko‘plab suronli kunlarni boshidan o‘tkazgan. Yurtimizning tashkil topishi, mustaqillikka erishishiga buyuk sarkarda va davlat arbobi, Amir Temurning hissasi ko‘pdir. A.Temur Temuriylar imperiyasining asoschisi hisoblanadi. U mo‘g‘ullardan keyingim siyosiy bo‘linishni tugatib, kuchli va markazlashgan davlat tuzdi. O‘zining davlatini kengaytirib, butun Markaziy Osiyo va unga tutash hududlarni birlashtirdi. A.Temur davlatni boshqarishda markazlashgan, kuchli va intizomli boshqaruv tizimini yaratdi. U siyosat, harbiy ishlar va iqtisodiyotda qat’iy tartib-qoidalarni joriy qilib, davlatni muvaffaqiyatli idora qildi. Barcha qarorlarni o‘zi qabul qilib, davlatning barcha ishlarini nazorat qilgan.

Amir Temur o‘z boshqaruv tamoyillarini “Temur tuzuklari” nomli asarda bayon qilgan. Ushbu asar davlat boshqaruvi, harbiy strategiya, qonunlar va axloqiy me’yorlar

to 'g'risida qimmatli qo'llanma hisoblanadi. Davlatni boshqarishda adolat va qonun ustuvorligiga katta ahamiyat bergan. U har qanday nizoni hal qilishda adolatli bo'lishni talab qilgan. Davlat xizmatchilari va harbiylar uchun qat'iy tartib va intizom belgilagan. A.Temur davlatining qudrati uning kuchli va intizomli armiyasiga asoslangan edi. U harbiy yurishlar orqali o'z davlatini kengaytirgan va boyitgan. Hindiston, Oltin O'rda, Eron, Kavkaz va Usmonli imperiyasiga qarshi muvaffaqiyatli harbiy yurishlar uyushtirgan. U strategik rejalashtirish va jang maydonida taktika qo'llashda noyob iste'dod ko'rsatgan. Davlat iqtisodiy jihatdan barqaror bo'lishi uchun soliq tizimini joriy qilingan. Soliqlar davlat g'aznasini to'ldirish va armiyani ta'minlash uchun muhim edi. Ilm-fan, madaniyat va san'atni rivojlantirishga katta e'tibor qaratgan. A.Temur boshqa davlatlar bilan diplomatik aloqalarni rivojlantirishga ham katta e'tibor bergan. [3,96].

Bugungi kunda Temuriylar davlati siyosiy jihatdan mavjud bo'lmasa-da, uning tarixi va merosi O'zbekistonning milliy o'zligini shakllantirishda va xalqaro maydonda o'z o'rnini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. A.Temurning "Temur tuzuklari" asari hozirgi paytda davlat boshqaruvi, adolat va tartib-intizom masalalarida qo'llaniladigan muhim hujjat sifatida o'rganiladi. Ushbu asar rahbarlik va boshqaruvda strategik fikrlashga katta ta'sir ko'rsatmoqda [4,106].

Yurtimizning mustaqillikka erishishi va mustaqil davlat sifatida dunyoga tanilishi murakkab va mas'uliyatli jarayon bo'ldi. Bu yo'lda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muhim hujjat sifatida katta rol o'ynaydi. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada tarqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasidir. U hech kimga qaram bo'lmasdan, erkin va ozod, tinch va osoyishta, farovon yashashning qonuniy kafolati bo'lib kelmoqda. Konstitutsiya — davlatni davlat, millatni millat qiladigan muhim siyosiy hujjat hisoblanadi. Boshqacha aytganda, jamiyat tayanchi va yurtimiz taraqqiyotining huquqiy kafolati, davlatimiz mustaqilligining yorqin ramzi, ko'p millatli xalqimiz xohish-irodasining qonuniy ifodasidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan bo'lib, u bugungi kunda mamlakatda erkin, adolatli va farovon hayotni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada Konstitutsiyaning erkin va farovon hayot garovi sifatida o'zni, fuqarolar uchun kafolatlangan huquqlar va erkinliklar, shuningdek, Konstitutsiyaning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati tahlil qilinadi [4].

Konstitutsiyamizning qabul qilinishi 1991-yil 31-avgustda O'zbekistonning mustaqillikni e'lon qilishidan so'ng, 1992-yil 8-dekabrda amalga oshdi. Konstitutsiya 6 bo'lim, 26 bob, 128 moddadan iborat bo'lib, unda mamlakatimizning huquqiy, demokratik jihatdan rivojlantirishning asosiy prinsiplari belgilangan. Bu hujjat o'z ichiga jamiyat va davlatning barcha sohalarini, shu jumladan iqtisodiy, ijtimoiy,

siyosiy va madaniy masalalarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy qoidalarni oladi. Konstitutsiya orqali erkinlik, tenglik, adolat va demokratik qadriyatlar jamiyatda mustahkamlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, davlat boshqaruvining asosiy yo‘nalishlarini belgilash bilan birga, fuqarolarning huquqlarini himoya qilish va erkinliklarni ta‘minlashda katta ahamiyatga ega. U mamlakatda erkin va farovon hayotning kafolati sifatida va jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Konstitutsiya, shuningdek, O‘zbekistonda demokratik islohotlarni amalga oshirishda yo‘naltiruvchi huquqiy me‘yor sifatida davlat va jamiyatning kelajagini shakllantiradi. Konstitutsiya – erkin va farovon hayot garovi ekanligining eng yaqqol isboti, mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy va iqtisodiy islohotlardir [5,23].

O‘zbekiston Konstitutsiyasining asosiy maqsadi, albatta, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan. Har bir fuqaroga tenglik, adolat va erkinliklar kafolatlanadi. Konstitutsiyaning 13-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida har bir insonning hayoti, erkinligi, sha‘ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi”, deb belgilangan. Bu esa har bir fuqaroning o‘z huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish imkoniyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi. Konstitutsiyada inson huquqlari, erkinliklari va ularni ta‘minlash mexanizmlari to‘liq bayon qilingan bo‘lib, bu nafaqat amaldagi siyosatni, balki jamiyatda erkin va farovon hayotning ta‘minlanishini kafolatlaydi. Konstitutsiya erkin va farovon hayot garovi sifatida quyidagi muhim jihatlarni o‘z ichiga oladi:

1. *Inson huquqlari va erkinliklarining kafolati:* O‘zbekiston Konstitutsiyasi insonning eng muhim huquqlarini himoya qilishni o‘z oldiga asosiy vazifa sifatida qo‘yadi. Fuqarolarning erkin va shaxsiy hayotini himoya qilish, xorijiy ta‘sirlar va kuchlarning zulmidan himoya qilish ushbu huquqiy hujjatning asosiy maqsadi bo‘lib, O‘zbekistonda aholining turli ijtimoiy qatlamlarining huquq va erkinliklari kafolatlanadi.

2. *Adolat va tenglik:* Konstitutsiya barcha fuqarolarning teng huquqli ekanligini ta‘kidlaydi. Har qanday siyosiy, diniy, irqiy va milliy ajratishlarga qarshi qat‘iy pozitsiya belgilaydi. O‘z navbatida, bu ijtimoiy farovonlikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi, chunki jamiyatdagi tenglik odamlar o‘rtasida kelishuv va tinchlikni ta‘minlaydi.

3. *Siyosiy erkinlik:* Konstitutsiya fuqarolarning siyosiy erkinliklarini kafolatlaydi, ya‘ni saylovda qatnashish, o‘z fikrini erkin ifodalash, siyosiy partiyalarni tuzish, mitinglar va namoyishlar va majlisda qatnashish kabi erkinliklar ta‘minlanadi. Bu, o‘z navbatida, jamiyatda erkin raqobatni yaratadi va fuqarolarga davlat boshqaruvida ishtirok etish imkoniyatini beradi.

4. *Ijtimoiy himoya:* Konstitutsiya, ijtimoiy himoya tizimini ta‘minlaydi. O‘zbekiston Respublikasida Konstitutsiyaga binoan, aholining barcha qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish uchun davlat tomonidan maxsus chora-tadbirlar belgilangan.

Bu esa o'z navbatida, fuqarolarning hayot darajasini oshirishga, farovonlikni mustahkamlashga yordam beradi.

5. *Erkin iqtisodiy faoliyat*: Konstitutsiya bo'yicha, davlat bozor iqtisodiyotiga asoslangan tizimda iqtisodiy erkinlikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Xususiy mulkni himoya qilish, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish, davlatning iqtisodiy siyosatini erkinlashtirishga qaratilgan islohotlar amalga oshiriladi [6].

“Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatchilik, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq sohalarini bundan keyin ham barqaror rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi”. Ushbu haqqoniy e'tirof O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 16-noyabrda imzolagan “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida”¹gi farmoyishda alohida ta'kidlandi. Mamlakatimizda 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni yoqlab ovoz bergani ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi, shu bilan bir qatorda, bosh qomusimizda xalqimizning Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha orzu-umidlari va intilishlari o'z aksini topganini ifoda etadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining [yangi tahriri](#) 2023-yil 1-maydan e'tiboran kuchga kirdi. Bunga qadar 1992-yildan buyon konstitutsiyaga jami 15 marta o'zgartish kiritilgan edi. Bu safar esa o'zgarishlar ko'lam kattaligi sabab hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi [7,8].

Bosh qomusimizda jamiyat va davlat, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tuzilishi hamda faoliyatining asosiy prinsiplari, ularning vakolatlari, fuqarolarning asosiy huquq va burchlari, jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatlar belgilab berilganligi bilan ham yanada ahamiyatlidir. Mamlakatimizda istiqomat qiluvchi turli din vakillari, jumladan, yurtimiz musulmonlari Asosiy Qomusimizda belgilab qo'yilgan huquq va erkinliklardan keng foydalanmoqdalar. Xususan, ushbu hujjatning yangi qabul qilingan tahririda vijdon hamda e'tiqod erkinligi alohida kafolatlab qo'yilgan. Konstitutsiyamizning 31-moddasida “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburiy singdirishga yo'l qo'yilmaydi”, deyilgan. Yurtimizda bugungi kunda 130 dan ortiq millat va elat vakillari Bosh Qomusimiz belgilab bergan teng huquqlilik va keng imkoniyatlardan foydalanib, totuvlik va hamjihatlikda yashamoqdalar [9].

Davlat va jamiyat hayotining asosiy tamoyillarini belgilab beruvchi, inson huquq va erkinliklarining huquqiy kafolati vazifasini o'tovchi Konstitutsiya – nafaqat davlatchilikning muhim ramzi, balki har bir xalqning milliy g'ururi va o'z -o'zini hurmat qilishining huquqiy timsoli hamdir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasidir. U hech kimga qaram bo'lmasdan, erkin va ozod, tinch va osoyishta, farovon yashashning qonuniy kafolati bo'lib kelmoqda.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, har bir mamlakat erkin va farovon jamiyat qurishga intilar ekan, bu yo'ldagi ulug'vor maqsad va vazifalarini, avvalo, o'z Konstitutsiyasida mustahkamlaydi. Zotan, unda mamlakatimizning o'z oldiga qo'ygan ulkan maqsad va vazifalari, xalqaro miqyosda qabul qilingan inson huquqlari va huquq ustuvorligi hamda demokratiya tamoyillari o'z ifodasini topgan bo'ladi. Bizning mamlakatimizda ham bosh qomusimizning ahamiyati va tutgan o'rnini nihoyatda yuksakdir. Barchamizga ayonki, dunyo bo'ylab urushlar ko'payotgan bir pallada bizning mamlakatimizda tinchlik hukm surmoqda. Buning boisi davlat qomusining mukammal tuzilganligi va barchaning unga birdek amala qilishidir deb o'ylayman. Konstitutsiya – davlatimizning bosh qonuni, huquq va erkinliklarimiz kafolati, dunyoda tenglar ichida teng, davlatchilik tarixiga ega xalq, suveren davlat ekanimizning shahodati hamdir. Xulosa o'rnida shuni ham ta'kidlashim kerakki, yurtimizda yashab, faoliyat ko'rsatayotgan har bir ongli inson O'zbekiston Respublikasining asosiy Qonuni – Konstitutsiyamizning barcha moddalarini mukammal bilishi va hayotga to'g'ri tatbiq qilmog'i, shuningdek, o'ziga yuklatilgan burchlarini sezib, to'laqonli ravishda bajarishi lozim bo'ladi. Ushbu ishlarni amalga oshirgan kishilar ham davrimiz, ham bebaho milliy qadriyatlarimiz me'yorlariga amal qilgan bo'ladi. Davlatda konstitutsiyaning joriy etilganligi va unga barchaning birdek amal qilishi bu davlatning farovonligi va tinchligini ta'minlaydi. Buning uchun esa har bir shaxs huquqiy tarbiyalangan bo'lishi va huquqiy ong va bilimlarga ega bo'lishi lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. A.Hojiyev. O'zbek tili sinonimlar lug'ati.–Toshkent: O'qituvchi, 1974, 307b.
2. A.T.Ko'ragon. Temur tuzuklari.– Toshkent: Ochun, 2024, 160 b.
3. I.Islomov, F.Amonova, B.Qandov. O'zbekiston tarixi.–Toshkent: Ochun, 2024, 512 b.
4. M.Akramov. Konstitutsiya va huquqiy davlatning asosiy tamoyillari. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.
5. Manba: <https://kun.uz/news/2023/05/02/yangi-konstitutsiya>
6. Manba: <https://www.standart.uz/ru/news/view?id=1720>
7. N.Mahmudov. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. –Toshkent: G'.G'ulom, 2023. 512 b.

8. Sh.M.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.–Toshkent: 2017.
9. Sh.M.Mirziyoyev.Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016,53 b.
- 10.<https://www.lex.uz/docs/-7160383>

